

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

Usmanova Shohista Shavkat qizi
Master student of Music education, Fergana State University
usmanovashoxista893@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lism maktablarida musiqa darslarida interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi tahlil qilingan. Interfaol metodlar o'quvchilarda musiqaga bo'lgan qiziqishni oshirib, ularning ijodiy fikrlashini rivojlantirishi qayd etilgan.

Kalit so'zlar: musiqa ta'limi, interfaol metodlar, samaradorlik, o'quvchilar faolligi, ijodiylik

Abstract: This article analyzes the effectiveness of using interactive methods in music lessons in general education schools. It highlights how interactive methods increase students' interest in music and foster their creative thinking.

Key words: music education, interactive methods, effectiveness, student engagement, creativity

Аннотация: В данной статье проанализирована эффективность применения интерактивных методов на уроках музыки в общеобразовательных школах. Подчёркивается, что интерактивные методы повышают интерес учащихся к музыке и развивают их творческое мышление.

Ключевые слова: музыкальное образование, интерактивные методы, эффективность, активность учащихся, креативность

Musiqa mashg'ulotlarini umumta'lism maktablarida tashkil etishning nazariy asoslari pedagogika, psixologiya va didaktika fanlari yutuqlariga asoslanadi. Ushbu mashg'ulotlar bolalarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni estetik tarbiya va ijodiy fikrlashga yo'naltirishda muhim o'rinn tutadi. Quyida musiqa mashg'ulotlarini tashkil etishning nazariy asoslari haqida batafsil ma'lumot keltiriladi.

Musiqa mashg'ulotlarini samarali tashkil etish uchun didaktik tamoyillarning o'rni beqiyosdir. Ushbu tamoyillar ta'lism jarayonining samaradorligini ta'minlash, o'quvchilarning musiqiy tafakkurini rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi. Didaktik tamoyillar quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

Ilmiylik tamoyiliga ko'ra musiqa mashg'ulotlari ilmiy asosga tayangan holda o'tkazilishi zarur. O'quvchilarga musiqa nazariyasining turli jihatlari, shu jumladan, musiqa janrlari, ritm, ohang, armoniya va boshqa asosiy elementlar haqida puxta tushuncha berish muhimdir. Bu tamoyil orqali o'quvchilar musiqaning nazariy asoslarini o'zlashtirib, ularni amaliy mashg'ulotlar bilan bog'lashadi.

Musiqa mashg'ulotlari o'quvchilarning yosh va bilim darajasiga mos ravishda bosqichma-bosqich tashkil etilishi kerak. Darslarni o'quvchilarning avvalgi bilimlarini

inobatga olgan holda rejalashtirish zarur. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarda musiqa bilimlarini tizimli ravishda oshirishga va musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Ushbu tamoyillar musiqaning har bir aspektini o‘rganishda o‘quvchilarning izchil rivojlanishiga imkon yaratadi, shu bilan birga, ta’lim jarayonining sifatini ham oshiradi.

Ko‘rgazmalilik metodiga ko‘ra, musiqa darslarida audio va vizual vositalardan foydalanish orqali o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini chuqurlashtirish zarur. O‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy mashqlar orqali mustahkamlash, masalan, jamoaviy kuylash yoki cholg‘u asboblarini chalish.

Musiqi faoliyat turlarini nazariy asoslash uchun musiqa mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning faoliyatini samarali tashkil etish uchun ularni turli musiqiy faoliyat turlari orqali rivojlantirish zarur. Har bir faoliyat turi o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu faoliyat turlari quyidagi yo‘nalishlarga bo‘linadi:

Kuylash faoliyati jamoaviy va yakka holda amalga oshiriladi. Jamoaviy kuylash o‘quvchilarga birgalikda ishslash, hamkorlik qilish va musiqiy uyg‘unlikni his qilish imkonini beradi. Yakka holda esa o‘quvchilar individual ravishda ovoz diapazonlarini kengaytirish, ritmni aniq ifodalash va ohangni to‘g‘ri anglash qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

Kuylash orqali bolalar musiqaning strukturaviy elementlarini yaxshiroq tushunib, ovoz nazoratini va ifoda etish mahoratini oshiradilar. Ijodiy yondashuvlar orqali bolalarning musiqiy tafakkurini kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Ayniqsa, musiqiy improvizatsiya, qo‘shiqlar yaratish va boshqa turdagи ijodiy faoliyatlar bolalarning musiqaga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularni erkin fikrlashga undaydi.

Bu jarayon orqali ular nafaqt yangi musiqiy g‘oyalarni o‘ylab topadilar, balki musiqiy ifoda vositalaridan to‘g‘ri foydalanishni ham o‘rganadilar. Musiqa mashg‘ulotlarining samarali bo‘lishi uchun uning psixologik asoslarini hisobga olish lozim. Chunki bolalarning musiqani idrok etishi va o‘rganishi ularning psixologik holati va rivojlanish darajasi bilan bevosita bog‘liq. Bu borada psixologik yondashuvda bir nechta muhim tamoyillar mavjud.

Birinchidan, yoshga mos yondashuv muhim. Musiqiy materiallar o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo‘lishi kerak. Masalan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun oddiy, quvnoq va esda qoladigan qo‘shiqlar tanlanadi. Yuqori sinf o‘quvchilari esa murakkabroq musiqiy asarlar bilan ishslash orqali o‘z bilim va ko‘nikmalarini chuqurlashtirish imkoniga ega bo‘ladi. Ikkinchidan, musiqaning emotsiyal ta’siri katta ahamiyatga ega.

Musiqa bolalarda turli hissiyotlarni uyg‘otadi, ularning kayfiyatiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Ijobjiy emotsiyalar esa o‘quv jarayonini yanada samarali qiladi, bolalarda musiqaga nisbatan mehr va qiziqish uyg‘otadi.

Har bir o'quvchining musiqiy qobiliyatini, individual imkoniyatlari va qiziqish darajasi turlicha bo'lgani sababli, dars jarayonida ularga individual yondashuv qo'llash muhim hisoblanadi. Bu orqali o'quvchilar o'zlariga mos tempda rivojlanish imkoniga ega bo'ladi, shuningdek, ularning o'quv jarayoniga bo'lgan ishtiyoqi ortadi va natijadorlik oshadi.

Musiqa darslari orqali nafaqat musiqiy bilimlar, balki o'quvchilarda madaniy, ma'naviy va estetik qarashlarni shakllantirish, shuningdek, milliy va umumbashariy qadriyatlarni singdirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonning nazariy asoslari quyidagicha izohlanadi.

Milliy qadriyatlarni singdirish o'quvchilarga o'z xalqining musiqiy merosi, an'anaviy janrlari, folklori hamda milliy cholg'u asboblari haqida bilim berish orqali amalgalash oshiriladi. Bu orqali xalq musiqasining tarixi, uslubiy xususiyatlari va jamiyatdagi o'rni haqida tushunchalar shakllanadi. Shu bilan birga, milliy musiqaning estetik jihatlarini anglash orqali o'quvchilarda o'z madaniyatiga nisbatan hurmat hissi ortadi.

Umumbashariy qadriyatlarni musiqiy ta'lim orqali targ'ib etish esa o'quvchilarga insoniyat madaniyatining umumiy tamoyillarini anglash imkonini beradi. Musiqa barcha xalqlar uchun universal til bo'lib xizmat qilgani bois, jahon musiqasi namunalarini o'rganish, mashhur bastakorlarning asarlari bilan tanishish va xalqaro musiqiy an'analarni anglash orqali o'quvchilarda keng dunyoqarash shakllanadi. Milliy va umumbashariy qadriyatlarning uyg'un holda targ'ib qilinishi natijasida o'quvchilarda musiqaga chuqur qiziqish, o'z xalqiga mehr va boshqa madaniyatlarga nisbatan hurmat hissi paydo bo'ladi. Bu esa musiqiy ta'limning shaxs kamolotidagi o'rnini yanada mustahkamlaydi.

Bu jarayon ta'lim jarayonining bir qismi sifatida o'quvchilarning estetik va ma'naviy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Musiqa ta'limi jarayonida o'quvchilarda estetik did, musiqiy tafakkur va madaniy ong'i shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon quyidagi yo'nalishlar asosida amalgalash oshiriladi. Milliy musiqani o'rgatish orqali o'quvchilarda o'zbek xalqining boy musiqiy merosiga bo'lgan qiziqish uyg'otiladi. Xalq qo'shiqlari, an'anaviy cholg'u asboblari va milliy uslublarni o'rganish, bolalarda milliy madaniyatga hurmat va g'urur tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi.

Umumjahon musiqiy madaniyatini tanitish orqali o'quvchilar turli xalqlarning musiqiy merosi bilan tanishadi. Jahon klassik musiqasi namunalarini tinglash va tahlil qilish ularning musiqiy bilimlarini kengaytirib, global musiqiy tafakkurni shakllantiradi.

Tarixiy musiqiy merosni o'rganish o'quvchilarga o'zbek va jahon kompozitorlarining ijodi bilan tanishish imkonini beradi. Bu orqali ular musiqaning tarixiy taraqqiyoti, turli uslublarning rivojlanish bosqichlari haqida chuqurroq tasavvurga ega bo'ladilar.

Zamonaviy ta'limdi innovatsion texnologiyalardan foydalanish musiqa mashg'ulotlarining mazmunan boyishi va metodik jihatdan takomillashuviga olib keladi. Bu borada quyidagi vositalar samarali hisoblanadi:

Audiovizual vositalar – musiqiy videolar, animatsiyalar va slaydlar orqali dars jarayonini jonlantirish, o'quvchilarning diqqatini jalb qilish imkonini beradi.

Interfaol usullar – smart doskalar, multimedia vositalari va internet resurslari orqali o'quvchilarni musiqiy faoliyatga faol jalb qilishni ta'minlaydi.

Virtual musiqa dasturlari – kompyuter orqali musiqiy asarlar yaratishga imkon beruvchi dasturlar o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantiradi.

Musiqa mashg'ulotlarini muvaffaqiyatli tashkil etishda o'qituvchi yetakchi o'rinn tutadi. Dars jarayonining mazmunan boyligi va metodik to'g'rilingini ta'minlash bevosita o'qituvchining bilim darjasи, didaktik yondashuvi va pedagogik mahoratiga bog'liq. Shunday ekan, o'qituvchi:

-O'quvchilarda musiqaga qiziqish uyg'otish uchun chuqur pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo'lishi lozim;

-Musiqiy faoliyatning turli shakl va usullarini samarali qo'llay olishi zarur;

-Har bir darsni o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, didaktik tamoyillarga asoslangan tarzda tashkil etishi muhimdir.

Musiqiy ko'nikmalarini rivojlantirishda o'quv muhitining ahamiyati katta. Sinfda ijodiy muhit yaratish bolalarda ilhom uyg'otadi. Dars jarayonida devorlarga kompozitorlar portretlari, turli musiqiy asboblar va mashhur kuylar joylashtirilgan plakatlar osilishi o'quvchilarning musiqaga qiziqishini kuchaytiradi. Darsdan tashqari faoliyatlar — konsertlar, musiqiy kechalar, ko'rgazmalar esa ularni musiqiy ijodga rag'batlantiradi. Musiqani interfaol usullar orqali o'rgatish o'quvchilarni darsga faol jalb etadi. Masalan, savol-javob usulida asarning ohangi yoki ritmi haqida fikr yuritish, muammoli topshiriqlarda o'z she'rini musiqaga moslash, bahs va munozaralarda milliy va jahon musiqasini taqqoslash kabi mashg'ulotlar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Musiqa darslarini boshqa fanlar bilan integratsiya qilish ham samarali yo'ldir. Adabiyot bilan bog'lab, kuylarda ifodalangan obrazlarni o'rganish, tarix bilan birlgilikda musiqa janrlarining rivojlanishini ko'rsatish, san'at bilan uyg'unlashtirib, musiqiy obrazlarning tasviriy san'atdagi aksini ko'rsatish orqali o'quvchilarning umumiy dunyoqarashi kengayadi.

O'yin elementlari yosh bolalarning musiqani o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Ritmli o'yinlar, melodiya tanish o'yinlari, qo'shiqdagi noto'g'ri notani topish singari topshiriqlar bolalarning musiqiy eshituvini va tafakkurini rivojlantiradi.

Individual va guruhiy ishlarni uyg'unlashtirish har bir o'quvchining qobiliyatini yuzaga chiqaradi. Yakkalikda qo'shiq kuylash, cholg'u asboblarini chalish orqali talabaning individual salohiyati ochiladi. Guruhiy mashg'ulotlar esa jamoaviy ishslash ko'nikmasini rivojlantiradi. Milliy va xalqaro musiqiy merosni uyg'un o'rgatish orqali o'quvchilar o'z xalqining qadriyatlarini qadrlaydi va boshqa xalqlar madaniyatiga hurmat bilan qaraydi. O'zbek xalq musiqasi, dostonlar, an'anaviy cholg'ular orqali

milliy o'zlikka hurmat shakllanadi. Jalon kompozitorlarining asarlarini tinglash esa ularni global madaniyat bilan tanishtiradi.

Zamonaviy texnologiyalar musiqa ta'limini yanada jonli va qiziqarli qiladi. Mobil ilovalar, multimedia tizimlari, onlayn platformalar yordamida o'quvchilar musiqa asboblarini chalishni o'rganadi, mashhur asarlarni tinglaydi va ularni tahlil qiladi. Audio tahlil dasturlari orqali ritm va melodiyalarning tuzilishini anglaydi. Musiqa o'quvchilarda emotsiyal dunyon shakllantirishga ham xizmat qiladi. Darsni quvnoq qo'shiqlar bilan boshlash bolalarda ijobiy kayfiyat uyg'otadi. Stressni kamaytirish uchun esa tinchlantiruvchi kuylarni tinglash foydalidir. Shuningdek, ijodkorlikni rivojlantirish ham muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. O'quvchilarni musiqiy improvizatsiyaga, yangi qo'shiqlar yaratishga undash orqali ularning tafakkuri va tasavvuri kengayadi. Har bir o'quvchining imkoniyatlarini inobatga olgan holda, individual yondashuv qo'llash orqali ularning o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi.

Umuman olganda, musiqa mashg'ulotlarini tashkil etishda ilmiy-nazariy yondashuv, psixologik holatlarni hisobga olish, zamonaviy texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish, individual va guruhiy faoliyatlarini uyg'unlashtirish kabi omillar darslarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, umumta'lim maktablarida musiqa mashg'ulotlarini tashkil etishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi o'quvchilarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini samarali shakllantirishga xizmat qiladi. Musiqa ta'limida yaratib beriladigan emotsiyal va ijodiy muhit o'quvchilarning estetik didini rivojlantirish, musiqa vositasida o'zini erkin ifoda etish hamda emotsiyal barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, milliy va umumbashariy qadriyatlarning uyg'un ravishda targ'ib etilishi yosh avlodda o'z xalqining madaniy merosiga hurmat ruhini singdiradi, ularni xalqaro madaniy makonga tayyorlaydi.

Shu bilan birga, musiqa mashg'ulotlarida fanlararo integratsiyani ta'minlash, ya'ni musiqani adabiyot, tarix, san'at bilan bog'liq holda o'rgatish, o'quvchilarning musiqiy tafakkurini kengaytiradi, umumiyy dunyoqarashini shakllantiradi. O'yin elementlari, individual va guruhiy ishlarning uyg'unligi esa bolalarda ijodkorlik, muloqot madaniyati va jamoada ishslash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish, xususan multimedia vositalari, onlayn platformalar va musiqiy dasturlar yordamida ta'lim jarayoni yanada interaktiv, qiziqarli va zamon talablari darajasida olib borilishi mumkin.

Umuman olganda, musiqa mashg'ulotlarini zamonaviy ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida tashkil etish orqali nafaqat musiqiy ta'lim sifatini oshirish, balki barkamol avlodni tarbiyalashda ta'sirchan vosita sifatida undan samarali foydalanish imkoniyati yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov A. A. Pedagogika. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 183 b.
2. Bobomurodov E. Musiqa tarbiyasi nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Iste'dod, 2020. – 144 b.
3. Abdullayeva M. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2020. – 203 b.
4. Qodirov A. Musiqa tarbiyasi va milliy qadriyatlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2019. – 112 b.
5. Mahmudov R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2020. – 212 b.
6. Abduqodirov S. Interfaol metodlar asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. – 98 b.
7. Soliyev O. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: Noshir, 2021. – 176 b.
8. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A. (2008). Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: Fan.
9. Yo'ldoshev Sh., Usmonov S. (2001). Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent: Fan.